




МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИШ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/6 2025



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

3/6-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*



Rasulova Z.S. 4-sinf o'quvchilarida badiiy asar o'qishga qiziqishlarini oshirish texnologiyalari	292
Teshaboyev D.R., Mamadaliyeva A.M. Boshlang'ich sinflarda "O'qish savodxonligi" darsliklari orqali o'quvchilarning gigiyenik tarbiyasini shakllantirish	297
Alimova M.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy materiallardan buyum tayyorlashda konstruksiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	302
Sayfiddinova J.Z. 4-sinf "O'qish savodxonligi" o'quv fanidan o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi	308
Botirova M.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	314
Sadriddinova Z.M. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida yangicha yo'nalish, Kvilling bilan ishlashni to'g'ri tashkil etish usullari	320
Sholpanova A.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mobil ta'limda o'qitish usullari	329
Dauletnazarova A.K. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning asoslari	333
Valiyeva H. Maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjini boshqarish texnologiyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi	339
Sayliyeva M.M. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganish va mustaqil ko'nikmalarini shakllantirish	346
Xoldarova I.V., Shokirova M.Z. Murakkab atamalarni o'zlashtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy salohiyatini rivojlantirish	351

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Shadiyeva G.E. Musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi	357
Атаханова С.О. Организация подготовки студентов к эффективной самостоятельной работе при глубоком изучении графических дисциплин	366

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Dehqanova M., Ashrapova M. Korreksion mashg'ulotlarni modellashtirish jarayonini keng targ'ib etish	372
Tojiboyeva Sh.K. Axborot tahlilida ko'p nuqtai nazarli yondashuvlarni shakllantirish metodikasi	380
Hamdamov G'A. Xususiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishning nazariy asoslari	387
Muhitdinov Sh.M. Antibiotiklarga chidamli bakteriyalar va ularni yengish strategiyalari	392
Rakhmatova M.S., Vafayeva Z.K. Ingliz tilini o'rgatishda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish yo'llari	399
Собирова М.Р. Интеграция компетенции XXI века в смешанном обучении	404
Ортиков М.С. Особенности профессиональной подготовки и проблемы повышения квалификации специалистов с высшим образованием в области железнодорожного транспорта	410
Tukhtabayev M.A. Foreign experience and prospects for its use in developing engineering personnel through industrial and educational cooperation	416

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХАМ СПОРТ

Niyazov A.T., Niyazova O.Yu. Ulumwa bilim beriw mekteplerinde hareketli oyinlardan balalardi sportqa bagdarlaw sipatinda paydalaniv	421
Сейдалиева Л.Т. Адаптивный спорт. Спорт слепых	427



KORREKSION MASHG‘ULOTLARNI MODELLASHTIRISH JARAYONINI KENG TARG‘IB ETISH

Dehqanova M.

CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Ashrapova M.

CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: korreksion mashg‘ulot, model, o‘qitish tizimi, nuqson, amaliyot, subyekt, metodologiya, prognoz, individual, jarayon, nogiron.

Ключевые слова: Коррекционное обучение, модель, система обучения, дефект, практика, субъект, методика, прогноз, личность, процесс, инвалид.

Key words: correctional training, model, training system, defect, practice, subject, methodology, prognosis, individual, process, disabled person.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada korreksion mashg‘ulot modellashtirishning olib borish tizimi va uni tashkil etishda o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash haqida ma‘lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье представлена информация о системе проведения моделирования коррекционного обучения и использовании образовательных технологий при его организации.

SUMMARY:

This article provides information on the system of conducting correctional training modeling and the use of educational technologies in its organization.

Korreksionmashg‘ulotlarning o‘qitishga, tarbiyalashga va ijtimoiylashtirishga ko‘maklashuvchi vazifalari to‘laqonli amalga oshadi qachonki, ular oldindan individual ravishda optimal prognoz asosida modellashtirilsa. Nutqida nuqsони bo‘lgan va eshitishida, ko‘rishida, aqliy rivojlanishida mummolari bo‘lgan bolalar nutqi ustida olib boriladigan korreksion mashg‘ulotlarning modellari amaliyotda bir qancha bo‘lib, ularni umumlashtiruvchi tavsiflar quyidagilar:

1. Tibbiy-pedagogik-psixologik tashxisga asoslanadi.
2. Bolalarda nuqson kelib shiqish sababini oydinlashtiruvshi anamnezga tayanadi.
3. Frontal va yakka ishlashga mo‘ljallanadi.



4. Har bir mashg'ulot muayyan vaqt bilan chegaralanadi (yakka mashg'ulotlar 20-30 daqiqa, frontal mashg'ulotlar 40 daqiqagasha).

5. Har bir mashg'ulot uchun alohida didaktik vositalar tayyorlanadi.

6. Har bir mashg'ulotning tizimlashtirilgan bosqichlari mavjud.

7. Har bir mashg'ulotda bola uchun o'ziga xos individual reja asosida ish olib boriladi.


8. Mashg'ulot natijalari bolaning shaxsiy qayd daftari (fonetik kundalik, nutq kartasi ...)ga yozib boriladi.

9. Har bir mashg'ulot natijalari mustaqil ravishda hamda umumta'lim fanlarini o'qitishga mo'ljallangan darslarda mustahkamlanadi.

10. Har bir mashg'ulotda fanlarni egallash uchun zarur bo'lgan lug'at ustida ish olib boriladi.

Sanab o'tilgan tavsiflar korreksion mashg'ulotni modellashtirishda metodik mo'ljal olishga xizmat qiladi. Korreksion mashg'ulotlarni modellashtirishda aynan muloqotga undovchi usullar va vositalardan foydalanishni rejalashtirishga e'tibor qaratiladi. Talabalarni nogiron bolalar bilan muloqot qilishga va tezkor munosabat o'rnatishga o'rgatishda o'ziga xos metodik yondashuvlardan foydalaniladi. Masalan, talabalarining ritorikasi, nutqiy-xissiy aks etishi, nutqiy apparat harakatlari va boshqalar ustida ishlar olib boriladi. Talaba o'z nutqini va talaffuzini nazorat qilish va kuzatishi orqali bolalardagi muloqot qiyinchiliklarini sezishga, payqashga o'rganadilar. Bunda ko'zguga qarab, artikulyasion mashqlar bajarish mashqi keng qo'llaniladi. Endi korreksion mashg'ulotlarni amalga oshirishga mo'ljallangan 2-modelning maxsus pedagogikaga mosligi ko'rib chiqiladi. Tuzilmaviy, funksional va sxematik modellarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, korreksion mashg'ulotlar ham muayyan tuzilishga ega, aniq vazifalarni amalga oshiradi, bu jarayonda pedagog va bola (o'quvchi) faoliyati sxemalari (yo'nalishlari) ga egadir. Talabalarga turli nogironlikka mansub bolalar bilan olib boriluvshi mashg'ulotlarning turli modellari taqdim etiladi. Bunda talabalar modellarning umumiy va farqli jihatlarini topadilar. Biroq har qanday mashg'ulot o'zining tuzilishi, mazmuniga egaligi bois, modellarning umumiy bloklariga talabalarining e'tibori qaratiladi. Korreksion mashg'ulotlarning tuzilishi uchun umumiy bo'lgan jihat bu mashg'ulotning aniq qismlardan tashkil topganidir. Shuning uchun adabiyotlarda "ilmiy fan sifatida modellashtirishning birligi bir xil ketma-ketlikda, turli qo'llaniladigan sohalarida joylashgan bir xil modellashtirish bosqichlarining mavjudligi bilan ta'kidlanadi" va bu bosqichlarning soni ularning darajasiga bog'liq.

O'z o'zidan savol tug'iladi. Maxsus pedagoglar uchun modellashtirish nima uchun kerak? Korreksion mashg'ulot modelini qurish keyingi metodik



1-rasm. Korreksion mashg'ulotlarni modellashtirish tarkibi

ishlarni yuritish, o'qitish va tuzatish qonuniyatlarini o'rinli qo'llash uchun zarurdir. Shuning uchun biz bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda korreksion-pedagogik jarayonni modellashtirishga maqsadli, metodik va albatta, texnologik jihatdan tayyorlash lozim degan xulosani ilgari surdik. Aslida model deganda ob'yekt (hodisalar) haqida, uning u yoki bu individual xususiyatlarini aks ettiruvchi aniq belgilangan va muayyan shegaraga ega, ixshamlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ishiga olgan, soddalashtirilgan va sxematik to'plangan bilimlarni tushunish mumkin. Bundan tashqari modelni muayyan ma'lumotni kodlashning o'ziga xos shakli sifatida ta'kidlash mumkin. Model o'rganish, egallash, ko'rish va amaliy foydalanish mumkin bo'lgan potensial bilimlarni o'z ishiga oladi. Aynan shu narsa model tavsifining bashorat qilish qobiliyatini belgilaydi. Odatda modellashtirishning negizini ilmiy va metodik bashoratlash tashkil etadi. Agar korreksion mashg'ulotlar maxsus pedagog tomonidan aqlli ravishda qurilgan bo'lsa, bu modelning bashorat qilingan vazifalari to'liq bajariladi. Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarni modellashtirishga tayyorlashda metodik tuzilmani anglash va tushunishga o'rgatuvchi yondashuvlar muhimdir. V.V.Xramov metodik tizim modelini qurish va uning komponentlarini quyidagicha ifodalaydi: "1) o'quv maqsadlarini shakllantirish; 2) nazariy va amaliy materiallarni tanlash; 3) muayyan mavzularning asosiy materialini ajratib ko'rsatish; 4) o'qitishni motivoasion qo'llab-quvvatlash; 5) metodik masalalarini yoritib berish; 6) mustaqil ishlarni tashkil etish tizimi; 7) algoritmlar tizimi; 8) harakatlar (subyektlar ishidagi va sub'yektlararo aloqalar) tizimi; 9) ta'lim jarayonini



jamoaviy va individual shakllantirish tizimi va qayta aloqani tashkil etish tizimi; 10) natijalar tahlili va asosiy modelni takomillashtirish”. [6.48]

V.I.Zagvyazinskiy simulyasiya o‘qitish texnologiyasiga e‘tibor qaratadi: “Imitasion texnologiyaning o‘ziga xosligi o‘quv jarayonida amalga oshiriladigan turli xil munosabatlar va turmush sharoitlarini modellashtirishdir”. [7.160]

N.Y.Rusova modellashtirish metodologiyasiga ko‘ra modellar tipologiyasini juda muhim deb hisoblaydi. Uni quyidagilarga qisqartirish mumkin: “... konseptual va terminologik modellashtirish, uning mahsuloti tegishli axborot makonining asosiy semantik tugunlari haqidagi umumlashtirilgan g‘oyalar modellari; modellashtirilgan tizimdagi barcha turdagi munosabatlar modellarini ifodalovshi tarmoqli modellashtirish; vaziyatli modellashtirish, buning natijasida turli vaziyatlarning modellari quriladi; tasnifli modellashtirish, uning mahsulotlari - tasniflash modellari - zamonaviy fanda mavjud bo‘lgan tasniflar asosida quriladi; algoritmik modellashtirish, bu harakatlar algoritmlarni qurish yordamida modellashtiriladi”. [7.]

Inklyuziv va maxsus ta‘lim amaliyotida modellashtirish quyidagi muhim vazifalarni hal qilishda muvaffaqiyatli qo‘llaniladi: o‘quv materiali mazmuni va tuzilishini optimallashtirish, o‘quv jarayonini aqlli rejalashtirish, kognitiv faoliyatni bashoratlash, korreksion-pedagogik jarayonni boshqarish, diagnostika qilish, o‘rganishni loyihalash. O‘quv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarining eng muhimi, yetakshisi bo‘lib hisoblanadi. Pedagogik jarayon, o‘zining qanshalik murakkabligi va davomiyligidan qat‘iy nazar, u eng avvalo maqsadni aniqlashdan boshlanadi. Pedagogik jarayonning boshqa tashkil etuvchi qismlari (tamoyil, mazmun, uslub, vosita, shakl) belgilangan maqsadga bo‘ysunadilar. Ular maqsadga muvofiq holda tanlanadilar va o‘zaro uyg‘unlashtiriladilar. Pedagogik maqsad - bu pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati natijasini oldindan tasavvur etishdir.

Individual ta‘limning mazmunli blokida asosan talabalarga taqdim etiluvshi o‘quv materiallar hamda amaliy mashg‘ulotda qo‘llaniluvchi didaktik vositalarning mazmunan jozibadorligi, malakaviy va pedagogik amaliyot davrida talabalar uchun berilgan dasturning mazmuni tashkil etadi. Talabalar bilimlarni tizimli o‘zlashtiradilar. Biz tadqiqot doirasida o‘quv materialini taqdim etishda takrorlanish intervaliga alohida e‘tibor qaratish kerakligini aniqladik. Bu esa, individual ta‘limning faoliyatli komponentini tashkil etadi.

Faoliyatli blokda oliy ta‘limda o‘quv-tarbiyaviy jarayonning amalga oshirilishi bilan bog‘liq vazifalarni mujassam etadi. Individual ta‘limning faoliyatli komponentiga oid funksiyalar ta‘lim xizmatlarini modernizatsiyalashda to‘laqonli va haqli o‘rinni egallashi lozim bo‘lgan



kategoriya darajasida joriylanishi mumkin degan xulosaga kelindi. Talabalarni korreksion mashg'ulotlarni modellashtirishga tayyorlashda asosan, nazariy, amaliy bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan individual ta'limda talabalarning amaliy ko'nikmalarini tizimli rivojlantirishni ta'minlashda muhim omil sifatida o'rganishga ta'sir etuvchi ta'lim reseptorlari maydonga chiqadi. chunki aynan ta'sir vositalari pedagogik jarayonning didaktik vositalar bilan ta'minlanganligida samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Natijaviy blok doirasida talabalar erishgan natijalarni tahlil etish vazifalari amalga oshiriladi. Talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari asosida baholanadi. Bizning tadqiqotimizda talabalarning o'z o'zini nazorat qilishi va baholashi nazarda tutildi. Individual ta'limda har bir yondashuv talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashni ko'zda tutadi. Shu bilan bir qatorda, ta'lim oluvchilardan o'quv materiallari bilan ishlash, mashqlar bajarish talab etiladi. Didaktik jihatdan qulay sharoitlar yaratilgan muhitda talabalarning nazariy bilimlarni mustaqil egallash imkoniyatlari kengayadi. Natijada talabalar o'zlarini kompleks namoyon etishga erishadilar. Talabalarning individual harakatlari jamoaviy harakatlarga uyg'unlashadi. Bu uyg'unlashuv har bir ishtirokchida muayyan qobiliyatni yuzaga keltiradi. chunki talaba jamoaviy harakat natijalarida o'zining ulushi bo'lishini xohlaydi. Aynan shu jarayon talabalarni o'zini o'zi baholashga undaydi. Talabalarda o'zini o'zi nazorat ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv jarayonining yaxlitligi g'oyasiga tayanish lozim.

Bo'lajak logopedlarni korreksion mashg'ulotlarni modellashtirishga tayyorlashda kasbga nisbatan qiziqish katta ahamiyatga ega. chunki kasbning nozik tomonlari va muayyan qiyinshiliklarini anglash ham mutaxassislikka nisbatan maqsadli tayyorgarlikning muhim shartlaridandir. Talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga motivasion yo'naltirishda improvizatsiya muhiti qator imkoniyatlarga egadir. Pedagogik improvizatsiyaning o'qituvchilik kasbiga tayyorlashdagi imkoniyatlari qator olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiqqa tortilgan. Jumladan, V.I.Zagvyazinskiy, V.N.Xarkin, V.A.Kan-Kalik va boshqalarning ishlarida pedagogik faoliyatda dush kelinadigan har qanday vaziyatlarni tezkor tahlil qilish va bu jarayondan muvaffaqiyatli shiqib ketish imkonini beruvshi omil sifatida improvizatsiya e'tirof etilgan. pedagogik improvizatsiya talabalarni vaziyatga ijodiy yondashishga davat qiladi. Shuning uchun biz oliy ta'limda, xususan, amaliy mashg'ulotlarda aynan improvizatsiya muhitini yaratishga katta e'tibor qaratdik. Amaliy mashg'ulotlarda improvizatsiyaning tarkibi, ijodiy faoliyat tarkibi bilan hamoxanglikda namoyon bo'ladi. Aynan shuning



uchun ham tadqiqot doirasida “pedagogik improvizatsiya” tushunchasini metodik tavsiyalarga ustuvorlik berildi.

Improvizatsiyada talabalarning individual harakat trayektoriyasi.

Improvizatsiya muhiti	Talabalar harakati
Talabalarni kasbiy qarorlarni tezkor qabul qilishga o'rgatishi	Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda improvizatsiya mashqi qo'llaniladi. Ya'ni talabalarga kasbiy amaliyot bilan bog'liq savol yoki keys beriladi. Shunda talabalar birma-bir o'zining javobini taqdim etadi. Bunda noodatiy javoblar ham qabul qilinadi. Bu vaziyatning “aqliy xujum” dan farqi, javoblar tahlil qilinmaydi.
Talabalar orasida mavjud turli o'zlashtirish darajalariga hamda psixologik passivlikka ega talabalar uchun zarur muhitni yaratishga mo'ljall olish uchun zarur	Jamoaviy improvizatsiya topshirig'i beriladi. Talabalar birgalikda berilgan keysga taqdimot tayyorlaydilar. Topshiriq shartida guruhning barcha talabalari ishtirok etishi belgilab berilgan bo'ladi. Shuning uchun barcha talabalar o'z imkoniyati darajasida taqdimotda ishtirok etadi. Bunda passiv talabalar ham o'rtoqlari bilan birgalikda nimaga qodirligini namoyon etadi. Pedagog mazkur talabalarning akademik-ijtimoiy holatini baholashga e'tibor qaratadi. Bunda pedagog kelajakda oraliq va yakuniy nazoratlarda passiv talabalarga “salbiy” baho qo'yishga shoshilmaydi. Joriy nazoratlarda talabaning hatti-harakatlarini kuzatgan holda uning imkoniyatlariga yarasha xulosa chiqarishiga improvizatsiya muhiti xizmat qiladi.

Maxsus pedagogika yo'nalishida olib boriluvchi nazariy, amaliy mashg'ulotlar hamda malakaviy va pedagogik amaliyot, bundan tashqari talabalarning mustaqil ta'limi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratiladi. Maxsus pedagoglarning kasbiy faoliyati asosan, rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda mavjud nuqsonlarni bartaraf etish va ularni ijtimoiylashtirishni ko'zda tutadi. Bu jarayon ta'lim subyektlari hamkorligiga tayanadi. chunki hesh bir korreksion-pedagogik ta'lim - oilalar, tor doiradagi mutaxassislarni hamda ijtimoiy institutlar ishtirokisiz amalga oshmaydi. Bularning barchasiga korreksion ish tizimida alohida va o'zaro bir biriga tasir o'tkazuvchi subyekt sifatida qarashimiz mumkin.

Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik, psixologik, tashkiliy-pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish orqali amaliyotga bir qator innovation yondashuvlar tatbiq etildi. Tadqiqot ishida maxsus pedagogika talabalarining kelgusidagi korreksion-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosiqshga ko'tarish imkoniyatini beruvshi integrativ, imrovaziasion muhitni yaratishning metodik tizimi takomillashtirildi. Mazkur tizim o'quv jarayonida talabalarning akademik-ijtimoiy faoliyatini



kasbiy-amaliy yoʻnaltirishni koʻzda tutadi. Akademik-ijtimoiy faoliyatni talaba uchun mazmunli va qiziqarli hamda ehtiyojga yoʻnalgan tarzda tashkil etishda tezkor diagnostika, davriy diagnostikaning imkoniyatlari kattaligi namoyon boʻldi.

Individual taʼlim sharoitida talabalarni logopedik mashgʻulotlarning bosqichlari boʻyicha zarur yondashuvlarni tizimli qoʻllashga, har bir bosqichda erishilishi lozim boʻlgan natijalarni bashoratlashga hamda mashgʻulotlarni metodik va reglamentli modellashtirishga tayyorlovchi diagnostik pedagogik taʼsirning muqobil va samarali shakl, vosita va usullari amaliyotga joriy etildi. Ular asosida talabalarning individual taʼlim trayektoriyasini optimallashtirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi. Amaldagi individual yondashuvlar va taklif etilayotgan integrativ, improvizasion taʼlim muhitini yaratish texnologiyasini joriy etish jarayonidagi metodik aspektlar va didaktik xususiyatlarning uzviy aloqadorligi oʻrganildi.

Tadqiqot mobaynida individual taʼlim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mamlakat OTMlaridagi mavjud holat oʻrganilganda, oliy taʼlim oʻquv jarayonida integrativ yondashuvlar, imrovizasion-interfaol muhiti, talabalarning akademik-ijtimoiy faoliyati trayektoriyasini monitoring qiluvshi mexanizm va vositalardan foydalanish orqali talabalarni logopedik mashgʻulotlarni modellashtirishga tayyorlash uchun quyidagilarni inobatga olish zarurligi aniqlandi:

Ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar: logopedik mashgʻulotlarni tashkil etishda metodik anʼanalarini takomillashtirish, kasbiy yoʻnaltirilgan axborot-kommunikatsion bazani adaptivlashtirish va modullarga oid topshiriqlarni tayyorlashda foydalanishni jadallashtirish zaruriyatining mavjudligi;

Psixologik-pedagogik shart-sharoitlar: logopedik mashgʻulotlarida taqdim qilinadigan nutqiy materialning psixologik-pedagogik jihatdan toʻliq egallanishiga erishishni taʼminlovchi metodik imkoniyatlarni kengaytirish zaruriyati;

Oʻquv-metodik shart-sharoitlar: logopedik nashrlar, darsliklar, elektron darsliklar, oʻquv metodik qoʻllanmalar, laboratoriyalar, oʻquv xonalari va jihozlarning talab darajasida boʻlishini taʼminlash va OTM pedagoglarining metodik jihatdan qurollanganligiga eʼtibor qaratish.

Maʼlumki, maxsus pedagogikaning logopediya yoʻnalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyor boʻlishini tavsiflovchi muhim komponent bu logopedik mashgʻulotlarni modellashtirishni bilish hisoblanadi. Agar talaba logopedik mashgʻulotlarni modellashtirishga tayyor boʻlsa, kasbiy faoliyatning tayanch kompetensiyasiga ega boʻlgan boʻladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Арипова Ш.Д. Развитие коррекционной работы с детьми с задержкой речи // Новые технологии в образовании. Материалы XVIII международной научно-практической конференции. – Москва, 2014 –С. 64-68.
2. Асадов Ю.М. Индивидуально-психологические особенности учителя как факторы развития профессионализма: результаты и перспективы исследования //“Школа и жизнь” (Maktab va hayot). –Ташкент, №1.2006.-с. 26.
3. Bozorov O.Y. Bo‘lajak logopedlarni kasbiy-metodik tayyorashda fanlararo integrativ yondashuvning ahamiyati // Ta‘lim fidoyilari Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. – Toshkent 2022. ISSN: 2180-2130. 301-305 b.
4. Гапурова Д.Т. Нутқ камчилигига эга бўлган болаларга таълим-тарбия беришда мутахассисларнинг ҳамкорлиги ва унинг аҳамияти // Алоҳида ёрдамга мухтож болалар махсус ва инклюзив таълимининг долзарб муаммолари. Илмий-амалий халқаро конференция материаллари, 26 апрель 2019 йил Т. 96 бет
5. Dehqanova M.G‘., Individual ta‘limning natijaviy komponenti // Kasb hunar ta‘limi, ilmiy-uslubiy-amaliy, ma‘rifiy jurnal, 2023. №8 211-213b.
6. Храмов В.В. Инновационные технологии обучения двигательным действиям в системе физкультурного образования : на примере Республики Беларусь : автореферат дис. ... доктора педагогических наук : Калининград, 2015. - 48 с.
7. Загвязинский, Владимир Ильич. "Методология и методика дидактического исследования." (1982): 160-160.
8. Русова Н.Ю. Теоретические основы моделирования дидактического материала: На примере образовательной области "филология" : диссертации и автореферата по ВАК РФ доктор педагогических наук 2000.